

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI

Lolayeva Mohinur Bahodir qizi,

Sattorova Husniya Xudoyqulovna

Termiz davlat pedagogika insitituti

Tabiiy fanlar fakulteti Kimyo yo'nalishi I-bosqich talabalari

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasini o'rganilganlik holati va ularga kerakli tavsiflar borasida fikr yuritiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi va ularning o'rganilganlik sabablari o'rganilib tahlil qilingan va bartaraf etish yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan.

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi va ularning o'rganish yo'lida nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Psixolog, ruhiyat, omil, bolalik, bolalar psixologiyasi, muammo, yechim.

Maktabgacha yosh psixologlar tomonidan uch yoshdan yetti yilgacha belgilanadi. Uch yoshida bola birinchi yosh inqirozini boshdan kechiradi. Yetti yil ham inqiroz davri. Ya'ni, maktabgacha yosh - bu bolaning hayotining birinchi inqirozidan ikkinchi hayot inqiroziga bo'lgan davri. Uch yoshli chaqaloq allaqachon o'zini odam kabi his qiladi. U birinchi marta shaxs ekanligini, oilaning to'la huquqli a'zosi ekanligini tushuna boshlaydi.

Maktabgacha ta'lim- bola hayotining, uning jamiyatga qo'shilishining ilk poydevori bo'lib, bolaning kelajakda komil inson bo'lishi uchun xizmat qiluvchi asosiy omildir. Bolaning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishi uchun Maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, maktab hamkorlikda ish olib borsada, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'limga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun psixolog shartlarining joriy etilishi, universitetlarda maktabgacha ta'lim psixologiyasi yo'nalishlarining ochilishi buning yaqqol misolidir. Hozirda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixolog faoliyat yuritmoqda. Tashkilotdagi har bir bola e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Bu jarayonda tarbiyachidan mas'uliyatli bo'lish talab etiladi. Agar tarbiyalanayotgan bola guruhdagi boshqa bolalardan xotirasi, diqqati, tasavvuri, tafakkuri, sezish qobiliyatlaridan ortda qolayotgan bo'lsa, darhol psixolog komagiga muhtoj bo'ladi. Bunda tarbiyasi tashkilotdagi bolalar psixologiga murojaat qiladi. Bolalar psixologiyasi haqida so'z yuritish ekanmiz, avvalo uning tarixiga nazar solmog'imiz

zarur. "Bolalar psixologiyasi" XX asrning 2-yarmida umumiy psixologiyadan mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Bolalar psixologiyasi bolaning tug'ilgan paytidan boshlab to maktab yoshiga yetgunga qadar psixik jihatdan taraqqiy etish qonuniyatlarini va shaxsiy psixologik xususiyatlarini tarkib topish jarayonini ilmiy jihatdan o'rganadi. Bolalar psixologiyasi — psixologiya sohasi, bolalar psixologik rivojlanishining umumiy va alohida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniyatlarni tadqiq qiladi. Shu sababli Bolalar psixologiyasi ni ko'pincha yosh psixologiyasi deb ataydilar. Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va h. k.) paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma xil faoliyatning (o'yinlar, o'qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bola shaxsi yosh xususiyatlarini o'rganishda ko'ndalang kesma va longityud deb nomlangan tadqiqotlar o'tkaziladi. Birinchi holatda birgina psixik jarayonning o'zi bir vaqtda turli yosh guruhlariga taalluqli bo'lgan bolalarda tadqiq qilinadi. Ikkinchi holat (longityud) da esa ma'lum bir (alohida tanlab olingan) bolalarning psixik xususiyatlari ko'p yillar davomida tadqiq qilinadi. Bu esa o'z navbatida ular psixikasi rivojlanishining umumiy kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo'lgan ishonch, hurmat, qo'llab-quvvatlash, unga bo'lgan e'tiborlarini his qildirish, Mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan holatlar o'rgatiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarga individual yondashish uchun ularning individual psixologik xususiyatlarini, shaxsining o'ziga xosligini bilish, o'rganish zarur. "Agar pedagogika odamni har jihatdan tarbiyalamoqchi bo'lsa, u oldin o'sha odamni ham har jihatdan bilib olishi kerak", - deb yozgan edi K.D. Ushinskiy. Shuning uchun har bir tarbiyachi bolalami o'rganish usullari bilan qurollanishi shart. Demak, bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi asoslarini bilish har bir tarbiyachisi, har bir metodist uchun muhim ahamiyatga ega. Har bir fanning o'z predmetini o'rganish metodlari bo'lgani kabi, bolalar psixologiyasi ham psixologiya fanining alohida bo'limlari tadqiqot metodlariga ega. Bolalar psixologiyasining metodlari faqat nazariy, ilmiy tadqiqod uchiningina emas, balki kundalik, amaliy vazifalarni hal qilish uchun ham zarurdir. Bola dunyoni, atrofni ota-ona ko'zlari bilan anglaydi. Ota-onaga nima yomon bo'lsa, bola shuni yomon deb hisoblaydi. Ota-ona kimni xush ko'rsa, bola uchun u inson yaxshi bo'ladi. Bu holat bolani 10-12 yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola

o'zi xulosa qilishga o'rganishni boshlaydi. Shunday ekan, bolaning har bir harakati - bu ko'zgidagi sizning aksingiz. Hozirgi ilg'or texnologiyalar asri bo'lgani tufayli ko'p ota-onalar bolalariga e'tiborsiz, loqayt bo'lib bormoqdalar. Bolalarning o'zlari ham texnologiyalarga ko'proq qiziqish bildirmoqdalar. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ruhiyati bilan bog'liq ishlarda katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan: Bir guruhda 30 ta bola bo'lsa, hammasi ham bir xil holatda o'tirmaydi. Ularning ichki dunyosi, xayolidan kechayotgan narsalari rangbarang, turli xil. Ularning xayolot olamini bilish uchun psixologdan katta tajriba talab etiladi. Buning uchun psixolog turli xil metodlardan foydalana olishi lozim bo'ladi. Bolalar ruhiyatini buzilishining har xil sabablari bo'lishi mumkin. Oiladagi kelishmovchiliklar, unga bo'lgan e'tiborning kamligi, bola o'zi istayotgan narsalarni qila olmayotganligi va hokazo. Bu narsalar bolalarning faoliyatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Oilada noxush holatlar kuzatilganda bolalarda o'yin faoliyati sust kechadi, o'qishga bo'lgan qiziqish yo'qoladi, mehnat faoliyatida ishtirok etmay qoladi. Buning uchun psixolog bola bilan individual shug'ullanib, uning mayda detallariga ham e'tibor berishi kerak. Ota-onalar bilan suhbat jarayonida bolalarining ruhiy holatini to'g'ri baholab, ularga to'g'ri tushuntira olishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar juda taqlidchan bo'ladi. Bolalar kimga ko'proq qiziqish uyg'otsa o'sha insonga taqlid qiladi. Bola taqlid qilgan insonni xatti-harakatlarini, uning qanday holatda ekanligini kuzatib unga o'xshashga harakat qiladi. Bu esa bolaning psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun ko'proq suhbat metodi samara beradi deb o'ylayman. Chunki, bola hech qachon yolg'on gapirmaydi. Hozirgi yoshlarimiz davr talabiga asosan o'sib bormoqda. Ularning rivojlanishi, o'sishi, shakllanishi ayniqsa, psixik holati jamiyat uchun juda muhim omil bo'lib bormoqda. Shuning uchun ham biz poydevorni maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlashimiz kerak. Har bir bola bilan individual shug'ullanish, ularning qiziqishlarini inobatga olish, ularni davr talabiga moslashtirish bizning asosiy vazifamiz bo'lib qolmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining psixologik rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lishadi. 5-6 yoshli bola barcha ma'lumotlarni eslab qolish va aytib berish xususiyatiga ega bo'ladi. Lekin bu ma'lumotlar hayoti davomida olimlar eslolmasligini isbotlaganlar. Bolalik ufqlarini kengaytira oladigan har qanday narsaga qiziqish uyg'otadigan davrdir va bu uning atrofidagi dunyoni qo'llab- quvvatlaydi. Bola umri davomida oladigan bilimlarning 70% izini 5 yoshgacha oladi. Bu maktabgacha yoshdagi davrlarni bola juda yaxshi eslab qoladi. Bolalarimizning hayotini shirin

xotiralar va yorqin kelajak bilan ta'minlaylik! Zero, " Bolalar kelajagimiz poydevoridir".

Xulosa Shuni aytish mumkinki, oilaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy missiya yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og'ir ijtimoiy vazifa ekanligi ayondir. Ota va onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va soliha farzandlarning kamolga yetishi uchun garovdir. Ostona hatlab tashqi dunyoga qadam qo'yilganida esa bolaga atrofmuhit va jamoatchilikning ta'siri sezilarli bo'ladi. Ta'lim muassasalari va mahallakuy, umuman, ijtimoiy sfera muhiti inson farzandini to hayotining so'nggi daqiqasigacha ta'qib qilib boradi. Shu boisdan, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishga erishish, nafaqat shaxsiy hayotda, balki, mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ularning taraqqiyoti jamiyatning ruhiy va ma'naviy takomilida ham muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ashurova, S. (2023). SOG 'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO 'G 'RISIDAGI TASAVVURLARINING SHAKLLANISHI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).
- 2.Ashurova, S., & Numonova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS'PEDAGOGICAL ABILITY. *Academia Repository*, 2(11), 46-53.
3. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр–хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.21.
- 4.qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9 SPECIAL), 418-421.
- 5.qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10 SPECIAL), 32-35.
- 6.Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 363-368.

7. Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>
8. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/arti>
9. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>
10. Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>
11. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). THE CONTENT AND ESSENCE OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 18-22. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3222> Zamira Opa Ish, [24.04.2024 15:08]
13. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). CONDITIONS OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. Academia Repository, 4(10), 1–9. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/99>
14. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 13-17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>